

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA O‘YINLARNING AHAMIYATI

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna

O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Obidova Dilnoza Faxriddin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti

Urgut filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha talim muassasalarida o'yinlardan faoliyatidan foydalanish, o'yinning bolalarning rivojlanishidagi tutgan o‘rni, ahamiyati va u bilan bog‘liq masalalar qisqacha mazmunda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O'yin, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, rolli o'yinlar, syujetlirolli o'yinlar, MTT.

Maktabgacha ta'lim bolalarning har tomonlama rivojlantirish uchun asosiy maskan hisoblanadi. Ushbu maskan bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligini belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy-axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi va mashg'ulotlar u uchun qiziqarli bo'ladi.

Bolaning atrof muhitga, kishilarga, predmetlarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O'yin jarayonida bolalarning faol ishtiroki psixik taraqqiyot uchun ahamiyatli jihati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi va o'zlashtiriladi. Bolalarda aqliy mehnatning ma'lum maqsadga qaratilgan mashg'ulotlar orqali o'zlashtirishdan ko'ra, bolalarning xotirasida o'yinlar orqali yetkazilgan bilim, ko'nikma, axborotlar nisbatan tez o'zlashtiriladi. O'yinlarni ikki turga bo'lish mumkin:

- Qoidali o'yinlar;
- Qoidasiz o'yinlar;

Qoidasiz o'yinlarning qoidali o'yinlardan farqi shundaki, ular ma'lum bir qoida asosida o'ynalmaydi, o'yin qoidasini bolalarning o'zlari xoxlaganidek o'ylab topishishadi. Pedagog-tarbiyachi o'yinni tashkil etishda quyidagi qoidalarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir:

➤ O'yinni tashkil etishda bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olinishi kerak;

- O'yin bilan mehnat orasida to'g'ri munosabat o'rnatilishi zarur;

O'yinlar bolalarning har tomonlama rivojlanishida sezilarli darajada ta'sir yetkazishi mumkin. Masalan:

- *Kognitiv rivojlanish:* O'yinlar bolalarda muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, yangi ko'nikmalarni o'rganishga yordam beradi va ijodkorlikni rivojlantiradi.

- *Jismoniy rivojlanish:* O'yinlar bolalarning motor ko'nikmalarini yaxshilaydi, jismoniy faoliyat va harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

- *Emosional rivojlanish:* O'yinlar bolalarga hissiyotlarini boshqarishni, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni va do'stlar bilan muloqot qilishni o'rganishga yordam beradi.

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob-axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida shifokorlik yoki o'qituvchilik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlarni shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. O'yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o'rganibgina qolmay, balki nutq so'zlashga, mustaqil fikrlashga, xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o'rganadi. Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir.

O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi. Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u va fikrlari bilan o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarakatdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Pedagog-tarbiyachi o'yin orqali bolalarda Ona-Vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga, tabiatga, yaqin kishilarga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin

orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. O'yinda bola kishilarning axloq - odob me'yorlarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Tarbiyachi bolalar o'yinini nazorat qilib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, ya'ni biovni fikrini inobatga olishni, hurmat qiishni o'rganishlari mumkin.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha ta'lim yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat. O'yinlar orqali bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi.bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. O'yinda bola kishilarning axloq odob me'yorlarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy metodlar asosida bolalarning yoshiga mos va xos bo'lgan metodlardan, qiziqarli o'yinlardan foydalanish bu albatta yaxshi. Lekin agarda mana shu mashg'ulotlarni milliy va qadimiy o'yinlarimiz bilan kop'roq bezatsalar, ulardan foydalanib, bolalrni yoshligidanoq o'zlikni anglashlik ruhida tarbiyalasak nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Zero kundan -kunga texnikaning taraqqiyoti evaziga bolajonlarimiz asrlar davomida avloddan avlodga yetib kelayotgan milliy o'yinlarimizdan uzoqlashmoqdalar. Aynan milliy o'yinlarimiz poklik, Vatanga muhabbat, jasurlik, mehnatdo'stlik kabi insoniy sifatlarni shakllantirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акрамов М. Р. Шахс касбий йўналганлиги ривожланишида масъулиятлиликнинг аҳамияти //Молодой ученый. – 2021.
2. Rustamovich A. M. The moral consciousness dynamics of students is the position in the process of high education //European journal of education and applied psychology. – 2016. – №. 1.
3. Назаров А. Психологические особенности руководителей, влияющие на принятие управленческих решений //Молодой ученый. – 2019.
4. Nazarov A. S. Psychological analysis of levels of administration of management decisions //Вопросы экономики и управления. – 2020.
5. Умаров Б. М., Назаров А. С. Низоли вазиятларда бошқарув қарорларини қабул қилишнинг ташкилий ва ижтимоий-психологик механизмлари //Молодой ученый. – 2020.